

TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI (“AGROBANK” ATB MISOLIDA)

Alimov Oybek G‘Ayratovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21385175>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada tijorat banklarida muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari, ularning bank moliyaviy barqarorligiga ta’siri hamda kamaytirish mexanizmlari “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki misolida o‘rganilgan. Tadqiqotda kredit oluvchilarning moliyaviy holatini yetarli darajada baholamaslik, kredit mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish, garov ta’minotining likvidligi pastligi, monitoring jarayonlaridagi kamchiliklar va tashqi iqtisodiy omillar muammoli kreditlarning ko‘payishiga sabab bo‘lishi asoslangan. Shuningdek, bankning kredit portfelini diversifikatsiya qilish, zamonaviy skoring tizimlarini joriy etish, qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini muntazam monitoring qilish, kreditlarni restrukturizatsiya qilish hamda muammoli qarzдорlik bilan ishlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar, kredit portfeli, kredit riski, kredit monitoringi, qarzдорlik, kredit skoringi, restrukturizatsiya, garov ta’minoti, moliyaviy barqarorlik, “Agrobank” ATB.

Abstract. This scientific article studies the causes of problem loans in commercial banks, their impact on the bank's financial stability, and mechanisms for reducing them using the example of Agrobank Joint-Stock Commercial Bank. The study is based on the fact that insufficient assessment of the financial condition of borrowers, inappropriate use of loan funds, low liquidity of collateral, shortcomings in monitoring processes, and external economic factors contribute to the increase in problem loans. It also analyzes the areas of diversifying the bank's loan portfolio, introducing modern scoring systems, regularly monitoring borrowers' solvency, restructuring loans, and improving the system for working with problem loans.

Keywords: commercial banks, problem loans, loan portfolio, credit risk, credit monitoring, debt, credit scoring, restructuring, collateral, financial stability, Agrobank JSCB.

Kirish: Bugungi kunda tijorat banklari faoliyatida kredit portfeli sifatini ta’minlash va muammoli kreditlar ulushini kamaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Muammoli kreditlarning ortib borishi banklarning likvidligi, moliyaviy barqarorligi va daromadlilikiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yangi kreditlarni ajratish imkoniyatlarini cheklaydi.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etuvchi “Agrobank” ATB kredit portfelida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash, qarz oluvchilarning to‘lov qobiliyatini to‘g‘ri baholash va kredit mablag‘laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish alohida ahamiyatga ega. Shu sababli muammoli kreditlarning kelib chiqish omillarini o‘rganish, ularni boshqarishning zamonaviy usullarini takomillashtirish hamda bank amaliyotiga samarali mexanizmlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekiston bank tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlarda muammoli kreditlarni kamaytirish masalasi kredit ajratilgandan keyingi undirish jarayoni bilangina cheklanmasligi ta'kidlangan. Potensial muammoli kreditlarni dastlabki bosqichda aniqlash, qarz oluvchining moliyaviy holatidagi salbiy o'zgarishlarni kuzatish va kredit portfelidagi tavakkalchiliklarni tizimli baholash muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan.

Muammoli kreditlarning ko'payishi banklarning yangi kreditlar ajratish imkoniyatini cheklashi, moliyaviy barqarorlikni zaiflashtirishi va iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatishi asoslangan. Shu sababli banklarda erta ogohlantirish indikatorlari, doimiy monitoring va qarzдорlikni o'z vaqtida restrukturizatsiya qilish mexanizmlarini shakllantirish tavsiya etilgan (Xaitbayev va Kochkarov, 2024).

Mahalliy tadqiqotlarning yana birida tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyoti kredit portfelini shakllantirishdan boshlab qarzдорlikni undirishgacha bo'lgan yaxlit jarayon sifatida baholangan. Kredit ajratishdan oldin mijozning to'lov qobiliyati, daromad manbalari, kredit tarixi va garov ta'minotini chuqur tahlil qilish muammoli qarzдорlikning oldini oluvchi asosiy vosita ekanligi qayd etilgan. Kredit ajratilgandan keyin esa mablag'lardan maqsadli foydalanish, qarz oluvchining pul oqimlari va to'lov intizomini muntazam nazorat qilish zarurligi asoslangan. Muammoli qarzдорlik yuzaga kelganda individual undirish strategiyasini tanlash va qonunchilikda nazarda tutilgan mexanizmlardan samarali foydalanish taklif qilingan (Abdurakhmanov, 2024).

O'zbekiston tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishga bag'ishlangan izlanishlarda kreditlarni tarmoqlar, hududlar, muddatlar va mijozlar guruhlari bo'yicha diversifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Kredit portfelining muayyan soha yoki qarz oluvchilar guruhida ortiqcha jamlanishi konsentratsiya riskini oshirishi, iqtisodiy yoki tabiiy omillardagi salbiy o'zgarishlar esa bir vaqtning o'zida ko'plab kreditlarning muammoli holatga o'tishiga sabab bo'lishi mumkin. Kredit siyosatini bank strategiyasi bilan muvofiqlashtirish, risk limitlarini belgilash, portfel sifatini muntazam tahlil qilish va ichki nazoratni kuchaytirish kredit tavakkalchiligini kamaytirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan (Ruzimuratov, 2024).

Rossiyalik tadqiqotchilar muammoli kreditlar bankning foiz daromadlarini kamaytirishi, qo'shimcha zaxiralar shakllantirish zaruratini yuzaga keltirishi hamda yangi kreditlash faoliyatini cheklashini aniqlagan. Muammoli qarzдорlik bilan ishlashda restrukturizatsiya, qayta moliyalashtirish, kredit muddatini uzaytirish va professional undirish tashkilotlaridan foydalanish kabi usullar tavsiya etilgan. Bunda barcha muammoli kreditlarga bir xil yondashish emas, balki qarz oluvchining moliyaviy holati va biznesini tiklash imkoniyatidan kelib chiqib tegishli usulni tanlash lozimligi asoslangan. Kredit ajratilgandan keyingi uzluksiz monitoring va undirish metodlarini muntazam yangilash bank moliyaviy barqarorligining muhim sharti sifatida baholangan (Nikiforova et al., 2019). Rossiya banklari kredit portfeli sifatiga oid tadqiqotlarda muammoli kreditlar darajasini faqat muddati o'tgan qarzдорlik ko'rsatkichi orqali baholash yetarli emasligi qayd etilgan. Kredit portfelini kompleks baholashda kreditlarning tarmoqlar va mijozlar bo'yicha konsentratsiyasi, qarz oluvchilarning moliyaviy holati, garov ta'minotining likvidligi,

yaratilgan zaxiralar miqdori va kreditlarning daromadlilik darajasini birgalikda hisobga olish taklif etilgan. Shuningdek, kredit portfeli tarkibini optimallashtirish, yuqori riskli segmentlarga limitlar belgilash va kreditlar sifatini pasayishidan oldin aniqlovchi ichki indikatorlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan (Sudarikova, 2024).

Yevro hududi banklari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda banklar o'rtasidagi raqobat, bozor konsentratsiyasi va muammoli kreditlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan. Inqirozdan keyingi davrda banklarning birlashishi va moliyaviy jihatdan barqaror institutlarning shakllanishi mavjud muammoli kreditlarni tezroq qisqartirishga yordam berishi aniqlangan. Shu bilan birga, sog'lom raqobat banklarni kredit oluvchilarni puxta baholashga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga va yangi muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka undashi ko'rsatilgan. Demak, kreditlash hajmini oshirishga qaratilgan haddan tashqari agressiv siyosat o'rniga portfel sifati va uzoq muddatli barqarorlikka asoslangan yondashuv zarur (Karadima va Louri, 2020). Yevropa mamlakatlarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosidagi tadqiqotlarda muammoli kreditlar ulushining ortishi bank kreditlari hajmini kamaytirishi, kredit foiz stavkalari va marjalarini oshirishi, yalpi ichki mahsulot o'sishini sekinlashtirishi aniqlangan. Muammoli kreditlar bankdan qo'shimcha zaxiralar shakllantirishni talab qilishi, foiz daromadlarini kamaytirishi va boshqaruv resurslarini asosiy faoliyatdan chalg'itishi ta'kidlangan. Muammoli kreditlarni sotish, hisobdan chiqarish, restrukturizatsiya qilish va undirish tizimini takomillashtirish orqali NPL darajasining kamaytirilishi bank kreditlash faoliyati hamda umumiy iqtisodiy sharoitni yaxshilashi mumkinligi ekonometrik jihatdan asoslangan (Huljak et al., 2020).

Osiyo banklari misolida o'tkazilgan tadqiqotlarda me'yordan ortiq va tez sur'atlarda o'sayotgan kreditlash keyingi davrlarda tizimli riskning ortishiga olib kelishi aniqlangan. Banklar iqtisodiy o'sish davrida kredit talablarini yumshatib yuborishi natijasida sifatsiz kreditlar ulushi keyinchalik ko'payishi mumkin. Shu bilan birga, kredit oluvchilar haqidagi axborotlarning to'liq mavjudligi, xususiy kredit byurolari faoliyati va banklar o'rtasida kredit ma'lumotlari almashinuvi kreditlashning salbiy oqibatlarini kamaytirishi ko'rsatilgan. Qarz oluvchi haqida soliq, hisobvaraqlar aylanmasi, kredit tarixi va boshqa ma'lumotlarni birlashtirish kredit qarorlarining aniqligini oshiradi (Soedarmono et al., 2017). Xitoy tijorat banklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy texnologiyalarga investitsiyalar muammoli kreditlar riskini sezilarli darajada kamaytirishi aniqlangan. Axborot texnologiyalari bo'yicha xodimlar, dasturiy ta'minot va texnik vositalarga sarflarning oshishi kredit riskini aniqlash va boshqarish samaradorligini yaxshilagan.

Ayniqsa, dasturiy ta'minot va malakali IT mutaxassislariga kiritilgan investitsiyalar garov va kredit hujjatlaridagi nomuvofiqliklarni aniqlash, qarz oluvchilarning pul oqimlarini kuzatish hamda to'lovdagi kechikishlarni oldindan prognoz qilish imkonini bergan. Fintexnologiyalar samarasi ma'lumotlarni boshqarish, ichki nazorat va komplayens tizimi bilan uyg'unlashtirilganda yanada kuchayishi ko'rsatilgan (Wang et al., 2023).

AQSh banklari faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda axborot texnologiyalarini faol joriy etgan banklar moliyaviy inqiroz davrida kamroq muammoli kreditlarga duch kelgani aniqlangan.

Texnologiyalar banklarga katta hajmdagi mijoz ma'lumotlarini qayta ishlash, qarz oluvchilarni aniqroq saralash va sifatsiz kredit arizalarini kredit ajratilishidan oldin aniqlash

imkonini bergan. Yuqori texnologik imkoniyatlarga ega banklar tomonidan ajratilgan ipoteka kreditlarining to'lov ko'rsatkichlari ham yaxshiroq bo'lgan. Mazkur natija sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan scoring va raqamli monitoring tizimlarining muammoli kreditlarni kamaytirishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi (Pierri va Timmer, 2022). AQSh tijorat banklari ma'lumotlari asosidagi yana bir tadqiqotda banklarning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv ko'rsatkichlari bilan muammoli kreditlar o'rtasida teskari bog'liqlik aniqlangan.

Shaffof boshqaruv, mas'uliyatli kreditlash, manfaatlar to'qnashuvini cheklash va mijozlar faoliyatini barqarorlik mezonlari asosida baholash kredit portfelini sifatini yaxshilashi ko'rsatilgan.

Korporativ boshqaruv darajasi yuqori bo'lgan banklarda kredit qarorlarining subyektiv omillarga bog'liqligi kamayishi, ichki nazorat kuchayishi va kredit risklari o'z vaqtida aniqlanishi qayd etilgan. Bu yondashuv bank kredit siyosatiga moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda boshqaruv va ekologik risklarni ham kiritish zarurligini anglatadi (Liu et al., 2023).

Ko'rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari "Agrobank" ATBda muammoli kreditlarni kamaytirish uchun kreditlashning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi kompleks tizim zarurligini ko'rsatadi. Bankda qishloq xo'jaligi kreditlarining mavsumiyliigi, ob-havo sharoitlari, suv ta'minoti, mahsulot narxlari va hududiy konsentratsiya risklarini hisobga oluvchi maxsus scoring modelini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlarning pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, erta ogohlantirish tizimini yaratish, restrukturizatsiya jarayonlarini individuallashtirish hamda muammoli aktivlarni sotish va undirish mexanizmlarini rivojlantirish talab etiladi. Bu choralar muammoli kreditlarning yangi oqimini cheklash bilan birga mavjud qarzdorlikni samarali qisqartirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining muammoli kreditlarini kamaytirish yo'llarini aniqlash uchun tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "Agrobank" ATBning kredit faoliyati, tadqiqot predmeti sifatida esa bank kredit portfelida muammoli kreditlarning shakllanish sabablari, ularni aniqlash, monitoring qilish, restrukturizatsiya qilish va undirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar belgilandi. Tadqiqotning nazariy asosini kredit riski, muammoli kreditlar, bank aktivlari sifati va kredit portfelini boshqarishga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Muammoli kreditlarning bank moliyaviy barqarorligiga ta'sirini izohlashda tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini "Agrobank" ATBning yillik hisobotlari, moliyaviy hisobotlari, kredit portfelini bo'yicha ochiq ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ko'rsatkichlari hamda bank tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Bank kredit portfelining holatini baholashda statistik guruhlash, gorizontaal va vertikal tahlil, dinamik qatorlar, taqqoslash hamda koeffitsiyentlar usullaridan foydalanildi. Jumladan, muammoli kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi, muddati o'tgan qarzdorlikning o'zgarish sur'ati, kreditlar bo'yicha shakllantirilgan ehtimoliy yo'qotishlar zaxiralari, kreditlarning tarmoqlar va mijozlar kesimidagi konsentratsiyasi kabi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Olingan natijalar bank tizimining oʻrtacha koʻrsatkichlari bilan taqqoslanib, “Agrobank” ATB kredit portfeliga xos xususiyatlar aniqlandi.

Muammoli kreditlarning kelib chiqish omillarini baholashda sabab-oqibat tahlili, ekspert baholash, holatli tahlil va muammoli kreditlarni tasniflash usullari qoʻllanildi. Kredit oluvchining moliyaviy holati, pul oqimlari, toʻlov intizomi, garov taʼminotining likvidligi, kredit mablagʻlaridan maqsadli foydalanish darajasi hamda tashqi iqtisodiy va tabiiy-iqlim omillarining kredit qaytarilishiga taʼsiri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida kredit skoringini takomillashtirish, erta ogohlantirish tizimini joriy etish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, qarzdorlikni individual restrukturizatsiya qilish va kreditdan keyingi monitoringni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklaridagi muammoli kreditlar holatini statistik baholashda muammoli kreditlar hajmi, ularning jami kredit portfelidagi ulushi, kredit portfelining yillik oʻsish surʼati hamda NPL koʻrsatkichining yil davomida oʻzgarishi asosiy mezonlar sifatida olindi.

Muammoli kreditlar ulushi muammoli kreditlar qoldigʻini jami kredit portfeliga boʻlish va natijani 100 foizga koʻpaytirish orqali aniqlandi. Tahlilda 2019–2025-yillar yakunlari, yaʼni tegishli ravishda keyingi yilning 1-yanvar holatidagi koʻrsatkichlardan foydalanildi. Bu yondashuv Oʻzbekiston bank tizimi va “Agrobank” ATB kredit portfelidagi oʻzgarishlarni yagona davriy mezon asosida taqqoslash imkonini beradi.

1-jadval

Oʻzbekiston tijorat banklari kredit portfeli va muammoli kreditlar dinamikasi, 2019–2025-yillar

Yillar	Jami kredit portfeli, mlrd soʻm	Kredit portfelining yillik oʻsishi, %	Muammoli kreditlar, mlrd soʻm	Muammoli kreditlarning yillik oʻzgarishi, %	NPL ulushi, %	NPL ulushining oʻzgarishi, foiz band
2019	211 581	–	≈3 174	–	1,5	–
2020	276 975	30,9	5 785	82,3	2,1	+0,6
2021	326 386	17,8	16 974	193,4	5,2	+3,1
2022	390 049	19,5	13 992	–17,6	3,6	–1,6
2023	471 406	20,9	16 621	18,8	3,5	–0,1
2024	533 121	13,1	21 185	27,5	4,0	+0,5
2025	604 002	13,3	18 055	–14,8	3,0	–1,0

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2020–2026; International Monetary Fund, 2020).

Jadval maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekiston tijorat banklarining jami kredit portfeli 2019-yildagi 211,6 trln soʻmdan 2025-yil yakunida 604,0 trln soʻmga yetgan. Natijada tahlil davrida kredit portfeli 2,85 barobar koʻpayib, uning oʻrtacha yillik oʻsish surʼati taxminan 19,1 foizni tashkil etgan. Kredit portfelining eng yuqori yillik oʻsishi 2020-yilda kuzatilib, 30,9 foizga teng boʻlgan.

Keyingi yillarda kreditlash hajmi muntazam oshgan bo'lsa-da, 2024–2025-yillarda o'sish sur'ati 13 foiz atrofida shakllangan. Bu holat kreditlashning mutlaq miqdorda davom etgani, biroq portfel kengayish sur'ati avvalgi davrlarga nisbatan mo'tadillashganini ko'rsatadi.

Muammoli kreditlar dinamikasida kredit portfeliga nisbatan keskinroq tebranishlar kuzatilgan. 2019-yil yakunida NPL darajasi 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 2,1 foizga, 2021-yilda esa 5,2 foizga yetgan. 2021-yilda muammoli kreditlar summasi 16,97 trln so'mni tashkil etib, bir yil ichida 193,4 foizga oshgan. Mazkur keskin o'sish pandemiya davrida korxonalar pul oqimlarining pasayishi, aholining daromadlari qisqarishi, avval berilgan kredit ta'tillari yakunlanishi va ayrim qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati yomonlashishi bilan izohlanadi. Markaziy bank tahlillarida ham pandemiya boshlanganidan keyin muammoli kreditlar tez o'sgani va qishloq xo'jaligi muammoli kreditlar hajmida muhim o'rin egallagani qayd etilgan (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022).

2022-yilda bank tizimining kredit portfeli 19,5 foizga oshganiga qaramay, muammoli kreditlar miqdori 17,6 foizga kamayib, 13,99 trln so'mni tashkil etgan. Natijada NPL ulushi 5,2 foizdan 3,6 foizgacha, ya'ni 1,6 foiz bandga pasaygan. Mazkur natija muammoli qarzдорlikni restrukturizatsiya qilish, qarzдорlarning moliyaviy holatini tiklash, undirish ishlarini kuchaytirish va ayrim muammoli aktivlarni balansdan chiqarish choralari bilan bog'liq. Shu bilan birga, NPL ko'rsatkichining kamayishiga kredit portfeli hajmining o'sishi ham ta'sir qilgan. Demak, muammoli kreditlar ulushidagi pasayishni baholashda faqat nisbiy ko'rsatkich emas, balki muammoli kreditlarning mutlaq summasi ham hisobga olinishi lozim.

2023-yilda kredit portfeli 20,9 foizga kengayib, 471,4 trln so'mga yetgan. Muammoli kreditlar esa 18,8 foizga ko'payib, 16,62 trln so'mni tashkil qilgan. Shunga qaramay, kredit portfelining NPLga nisbatan tezroq o'sishi hisobiga muammoli kreditlar ulushi 3,5 foizgacha pasaygan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunida muammoli kreditlar tarkibida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" kreditlarning ulushlari mos ravishda 43, 32 va 25 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich muammoli aktivlar bilan ishlashda kreditlarni faqat NPL sifatida umumiy hisobga olish emas, balki ularni qaytarilish ehtimoli va zarar darajasi bo'yicha alohida guruhlariga ajratish zarurligini ko'rsatadi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024).

2024-yilda bank tizimidagi muammoli kreditlar hajmi 21,19 trln so'mga yetib, oldingi yilga nisbatan 27,5 foizga oshgan. NPL ulushi esa 3,5 foizdan 4,0 foizga ko'tarilgan. Kredit portfelining o'sish sur'ati 13,1 foizni tashkil etgan sharoitda muammoli kreditlarning 27,5 foizga oshishi aktivlar sifati bilan bog'liq xavflarning kuchayganini bildiradi. Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhida O'zbekistondagi 4 foizlik NPL darajasi Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari medianasidan taxminan 1 foiz band yuqori bo'lgani ko'rsatilgan. Bu esa muammoli kreditlar darajasi nazorat qilinayotgan bo'lsa-da, kredit portfeli sifati bo'yicha qo'shimcha choralar talab etilganini anglatadi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025).

2025-yil yakunida ijobiy o'zgarish kuzatilib, bank tizimidagi muammoli kreditlar 18,06 trln so'mgacha yoki 14,8 foizga kamaygan. Shu davrda kredit portfeli 13,3 foizga oshgani sababli NPL ulushi 4,0 foizdan 3,0 foizgacha pasaygan. Muallif hisob-kitoblariga ko'ra, ushbu bir foiz bandlik pasayishning qariyb 0,5 foiz bandi kredit portfelining o'sishi, qolgan qismi esa muammoli

kreditlarning mutlaq kamayishi bilan bogʻliq. Shunday qilib, 2025-yilda NPL koʻrsatkichining yaxshilanishi faqat kredit portfeli maxrajining kengayishi hisobiga emas, balki muammoli qarzдорlik qoldigʻining real qisqarishi bilan ham taʼminlangan (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026).

2-jadval
“Agrobank” ATB kredit portfeli va muammoli kreditlarining bank tizimi koʻrsatkichlari bilan taqqoslama tahlili, 2019–2025-yillar

Yillar	“Agrobank” kredit portfeli, mlrd soʻm	Kredit portfelining yillik oʻsishi, %	“Agrobank” NPL miqdori, mlrd soʻm	Bank tizimi NPL ulushi, %	“Agrobank”ning tizim kreditlaridagi ulushi, %
2020	24 997	57,6	308	2,1	9,0
2021	32 258	29,0	1 495	5,2	9,9
2022	43 846	35,9	1 685	3,6	11,2
2023	54 483	24,3	2 071	3,5	11,6
2024	59 436	9,1	2 903	4,0	11,1
2025	81 108	36,5	2 698	3,0	13,4

Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki va “Agrobank” ATBning ochiq moliyaviy maʼlumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2020–2026; “Agrobank” ATB, 2025).

“Agrobank” ATB kredit portfeli tahlil davrida bank tizimi koʻrsatkichlariga nisbatan yuqori surʼatlarda kengaygan. Bankning kredit portfeli 2019-yildagi 15,87 trln soʻmdan 2025-yilda 81,11 trln soʻmga yetib, 5,1 barobar oshgan. Uning oʻrtacha yillik oʻsish surʼati taxminan 31,3 foizni tashkil etgan. Natijada “Agrobank”ning Oʻzbekiston bank tizimi jami kredit portfelidagi ulushi 2019-yildagi 7,5 foizdan 2025-yilda 13,4 foizgacha koʻtarilgan. Bu bankning iqtisodiyotdagi kreditlash jarayonida, ayniqsa qishloq xoʻjaligi, agroloyihalar va hududiy tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi ahamiyati oshganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bankning tizim kreditlaridagi ulushi ortishi uning kredit risklarini samarali boshqarish boʻyicha masʼuliyatini ham kuchaytiradi.

2020-yilda “Agrobank” kredit portfeli 57,6 foizga oshib, 25,0 trln soʻmga yetgan. Muammoli kreditlar 308 mlrd soʻm yoki kredit portfelining 1,2 foizini tashkil etgan. Bu bank tizimining 2,1 foizlik oʻrtacha koʻrsatkichidan 0,9 foiz band past boʻlgan. 2021-yilda esa muammoli kreditlar summasi 1,50 trln soʻmgacha koʻpayib, bir yil ichida qariyb 4,9 barobar oshgan. NPL ulushi 4,6 foizga yetgan boʻlsa-da, ushbu koʻrsatkich bank tizimining 5,2 foizlik darajasidan 0,6 foiz band pastligicha qolgan. Demak, pandemiya oqibatlari “Agrobank” kredit portfeliga ham jiddiy taʼsir koʻrsatgan, biroq mazkur davrda bankning NPL koʻrsatkichi tizim oʻrtachasidan yuqori boʻlmagan.

2022-yildan boshlab “Agrobank”ning NPL koʻrsatkichi bank tizimi oʻrtacha darajasidan yuqori shakllana boshlagan. 2022-yilda bankning NPL ulushi 3,8 foizni tashkil etib, tizim koʻrsatkichidan 0,2 foiz band, 2023-yilda esa 0,3 foiz band yuqori boʻlgan.

Mazkur davrda kredit portfeli 43,85 trln soʻmdan 54,48 trln soʻmgacha koʻpaygan, muammoli kreditlar esa 1,69 trln soʻmdan 2,07 trln soʻmga yetgan. Kredit portfeli va NPLning bir vaqtda oʻsishi yangi kreditlar ajratish jarayonidagi baholash sifati bilan bir qatorda avval ajratilgan kreditlarning keyingi monitoringi ham kuchaytirilishi zarurligini koʻrsatadi.

Bank uchun eng yuqori NPL koʻrsatkichi 2024-yilda kuzatilgan. Ushbu davrda “Agrobank” kredit portfeli atigi 9,1 foizga oshgan boʻlsa, muammoli kreditlar summasi 40,2 foizga koʻpayib, 2,90 trln soʻmga yetgan. Natijada NPL ulushi 4,9 foizni tashkil etib, bank tizimi oʻrtacha koʻrsatkichidan 0,9 foiz band yuqori shakllangan. “Agrobank”ning tizim kredit portfelidagi ulushi 11,1 foiz boʻlganiga qaramay, bank hissasiga jami muammoli kreditlarning 13,7 foizi toʻgʻri kelgan. Bu nisbat bankning muammoli kreditlardagi ulushi kreditlashdagi bozor ulushidan yuqori boʻlganini va kredit riskining nisbiy konsentratsiyasi kuchayganini koʻrsatadi (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025).

2025-yilda “Agrobank” kredit portfeli 36,5 foizga oshib, 81,11 trln soʻmga yetgan, muammoli kreditlar esa 7,1 foizga kamayib, 2,70 trln soʻmni tashkil qilgan. Buning natijasida NPL ulushi 4,9 foizdan 3,3 foizgacha, yaʼni 1,6 foiz bandga pasaygan. Biroq muallif hisob-kitoblari ushbu yaxshilanishning katta qismi kredit portfelining keskin kengayishi bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Agar 2024-yildagi 2,90 trln soʻmlik NPL miqdori oʻzgarmaganida ham, kredit portfelining 81,11 trln soʻmgacha oʻsishi hisobiga NPL ulushi taxminan 3,6 foizgacha pasaygan boʻlar edi. Demak, umumiy 1,6 foiz bandlik pasayishning taxminan 1,3 foiz bandi portfel hajmining oʻsishi, qariyb 0,3 foiz bandi esa muammoli kreditlarning real kamayishi hisobiga yuzaga kelgan. Bu holat bank aktivlari sifatini baholashda NPL ulushi bilan bir qatorda uning mutlaq miqdorini ham doimiy nazorat qilish zarurligini tasdiqlaydi (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026).

2025-yil yakunida “Agrobank” hissasiga bank tizimidagi jami kreditlarning 13,4 foizi va muammoli kreditlarning 14,9 foizi toʻgʻri kelgan. Mazkur nisbat 2024-yildagi holatga nisbatan yaxshilangan boʻlsa-da, bankning muammoli kreditlardagi ulushi uning kredit bozoridagi ulushidan hamon yuqori boʻlib qolgan. Shuningdek, bankning 3,3 foizlik NPL darajasi tizim oʻrtachasidan 0,3 foiz band yuqori boʻlgan. Shunday ekan, 2025-yildagi ijobiy natijani kredit riski toʻliq bartaraf etilgan holat sifatida emas, balki portfel sifatini yaxshilash jarayonidagi muhim bosqich sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari “Agrobank” ATBda muammoli kreditlarning shakllanishiga kredit portfelining tez surʼatlarda kengayishi, qishloq xoʻjaligi kreditlarining mavsumiyliigi, qarz oluvchilarning hosil va mahsulot sotishdan tushadigan daromadlarga bogʻliqligi, ob-havo va suv taʼminoti bilan bogʻliq risklar, garov qiymatining oʻzgarishi hamda ayrim kreditlarning maʼlum tarmoq va hududlarda konsentratsiyalashuvi taʼsir qilishi mumkinligini koʻrsatadi. Markaziy bank tahlillarida qishloq xoʻjaligi muammoli kreditlar hajmi boʻyicha yuqori oʻrinlardan birini egallashi qayd etilgani “Agrobank” kredit portfeli uchun tarmoq risklarini alohida baholash zarurligini kuchaytiradi (Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2022).

Olingan natijalarga koʻra, “Agrobank” ATBda muammoli kreditlarni kamaytirish uchun kredit arizalarini baholashda faqat garov taʼminotiga asoslanishdan voz kechib, qarz oluvchining

real pul oqimi, qarzga xizmat ko'rsatish koeffitsiyenti va faoliyatining mavsumiy xususiyatlarini hisobga oluvchi skoring modelini kengaytirish zarur. Qishloq xo'jaligi kreditlari bo'yicha suv ta'minoti, hosildorlik, ob-havo, mahsulot narxlar va sug'urta qoplamasini qamrab oluvchi tarmoq stress-testlari joriy qilinishi lozim. Kredit ajratilgandan keyin hisobvaraqlar aylanmasining kamayishi, to'lovlarning kechikishi, soliq qarzдорligining ortishi va garov qiymatining pasayishini avtomatik aniqlaydigan erta ogohlantirish tizimi yaratilishi muammoli kreditlarni NPL bosqichiga o'tishidan oldin aniqlash imkonini beradi.

2019–2025-yillardagi statistik tahlil O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar darajasi 2021-yilda eng yuqori nuqtaga yetgani, 2022–2023-yillarda pasaygani, 2024-yilda qayta oshgani va 2025-yilda 3 foizgacha qisqarganini ko'rsatdi. "Agrobank" ATBda ham 2025-yilda sezilarli ijobiy natija qayd etilgan bo'lsa-da, bankning NPL darajasi tizim o'rtachasidan yuqoriligicha qolgan. Shu sababli kredit portfelini tez kengaytirish bilan bir qatorda uning sifatini ta'minlash, mavjud muammoli qarzдорlikning mutlaq summasini kamaytirish, tarmoq konsentratsiyasini cheklash va kredit monitoringini raqamlashtirish bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Muhokama: O'tkazilgan statistik tahlil O'zbekiston bank tizimi va "Agrobank" ATBda muammoli kreditlar dinamikasi kredit portfelining o'sish sur'ati, qarz oluvchilarning moliyaviy holati hamda kreditdan keyingi monitoring sifati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. 2021-yilda pandemiya oqibatida muammoli kreditlarning keskin oshishi, 2022–2023-yillarda ularning nisbatan pasayishi, 2024-yilda qayta ko'payishi va 2025-yilda kamayishi NPL ko'rsatkichining iqtisodiy sharoitlarga yuqori darajada ta'sirchan ekanini tasdiqlaydi. "Agrobank" ATBda 2025-yilda muammoli kreditlar ulushining 3,3 foizgacha pasayishi ijobiy natija bo'lsa-da, mazkur o'zgarishning katta qismi kredit portfeli hajmining keskin kengayishi hisobiga yuzaga kelgan. Shu sababli bank faoliyati samaradorligini faqat NPLning nisbiy ulushi orqali baholash yetarli emas; muammoli kreditlarning mutlaq hajmi, ehtimoliy yo'qotishlar uchun shakllantirilgan zaxiralar, qarzдорlikning tasnifi va undirish darajasi ham birgalikda tahlil qilinishi lozim. Mazkur natijalar muammoli kreditlar bank foydasi, kapital yetarliligi va yangi kreditlar ajratish imkoniyatini cheklashi haqidagi xalqaro tadqiqotlar xulosalariga mos keladi (Tölö va Virén, 2021; Huljak et al., 2020).

"Agrobank" ATB kredit portfelining qishloq xo'jaligi va hududiy loyihalarga yuqori darajada yo'naltirilgani bankda umumiy kredit skoringi bilan cheklanib qolmasdan, tarmoqning o'ziga xos risklarini hisobga oluvchi alohida boshqaruv mexanizmini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi korxonalarining daromadlari mavsumiy bo'lib, hosildorlik, suv ta'minoti, ob-havo sharoiti, mahsulot narxi va sotish imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Shuning uchun kreditlarni baholashda qarz oluvchining garov ta'minotidan tashqari real pul oqimi, qarzga xizmat ko'rsatish qobiliyati, sug'urta qoplamasi va tashqi risklarga chidamliligini baholash muhimdir. Hisobvaraqlar aylanmasining kamayishi, to'lovlarning kechikishi, soliq qarzдорligining yuzaga kelishi va garov qiymatining pasayishini avtomatik aniqlaydigan erta ogohlantirish tizimi muammoli qarzдорlikni dastlabki bosqichda aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, kredit portfelini tarmoqlar va hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish, qayta tiklanish imkoniyati mavjud qarzdorlar kreditlarini o'z vaqtida restrukturizatsiya qilish hamda muammoli aktivlar bilan ishlaydigan maxsus bo'linma faoliyatini kuchaytirish bank kredit portfeli sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar kredit axborotidan keng foydalanish va raqamli texnologiyalar orqali kredit riskini pasaytirish to'g'risidagi ilmiy xulosalar bilan uyg'un hisoblanadi (Soedarmono et al., 2017; Pierri va Timmer, 2022; Wang et al., 2023).

Xulosa. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish kredit ajratishdan oldingi baholash, kreditdan keyingi monitoring va mavjud qarzdorlikni samarali boshqarishni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatdi. 2019–2025-yillardagi tahlillarga ko'ra, "Agrobank" ATBda kredit portfeli sezilarli kengaygan va 2025-yilda muammoli kreditlar ulushi kamaygan bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkich bank tizimining o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib qolmoqda. Shu sababli bankda qarz oluvchilarning real pul oqimi va to'lov qobiliyatini chuqur baholash, qishloq xo'jaligiga xos mavsumiy, iqlimiy va narx risklarini kredit scoringiga kiritish, kredit portfelini tarmoqlar hamda hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish muhimdir. Shuningdek, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosidagi erta ogohlantirish tizimini joriy etish, garov ta'minotining likvidligini muntazam qayta baholash, moliyaviy holatini tiklash imkoniyati mavjud qarzdorlar kreditlarini o'z vaqtida restrukturizatsiya qilish va muammoli aktivlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Ushbu choralar "Agrobank" ATB kredit portfeli sifatini yaxshilash, ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish va bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xaitbayev, J.O. va Kochkarov, X.A. (2024) 'Milliy iqtisodiyot bank tizimida muammoli kreditlar salmog'ini kamaytirish asoslari', Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari, 1(1), pp. 422–425. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.dev-national-economy.58257.
2. Abdurakhmanov, D. (2024) 'The work of commercial banks with problem loans and ways to improve them', Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), pp. 382–385.
3. Jalalov, M. (2025) 'O'zbekistonda "yashil" moliya amaliyotining muammoli kreditlar dinamikasiga ta'siri: barqaror moliyaviy rivojlanish yo'lida tahliliy yondashuv', Moliya va bank ishi, 11(2), pp. 44–51.
4. Nikiforova, V.D., Kovalenko, A.V. va Nikiforov, A.A. (2019) 'Теоретические и практические аспекты работы коммерческих банков с проблемными кредитами', Научный журнал НИУ ИТМО. Серия: Экономика и экологический менеджмент, 3(38), pp. 93–100. DOI: 10.17586/2310-1172-2019-12-3-93-100.
5. Sudarikova, I.A. (2024) 'Кредитный портфель российских банков и резервы повышения его качества', Journal of Monetary Economics and Management, 1, pp. 174–180. DOI: 10.26118/2782-4586.2024.11.53.024.

6. Soedarmono, W., Sitorus, D. va Tarazi, A. (2017) 'Abnormal loan growth, credit information sharing and systemic risk in Asian banks', *Research in International Business and Finance*, 42, pp. 1208–1218. DOI: 10.1016/j.ribaf.2017.07.058.
7. Wang, H., Mao, K., Wu, W. va Luo, H. (2023) 'Fintech inputs, non-performing loans risk reduction and bank performance improvement', *International Review of Financial Analysis*, 90, article 102849. DOI: 10.1016/j.irfa.2023.102849.
8. Fan, W., Wang, F., Zhang, H., Yan, B., Ling, R. va Jiang, H. (2024) 'Is climate change fueling commercial banks' non-performing loan ratio? Empirical evidence from 31 provinces in China', *International Review of Economics & Finance*, 96, article 103585. DOI: 10.1016/j.iref.2024.103585.
9. Karadima, M. va Louri, H. (2020) 'Non-performing loans in the euro area: Does bank market power matter?', *International Review of Financial Analysis*, 72, article 101593. DOI: 10.1016/j.irfa.2020.101593.
10. Huljak, I., Martin, R., Moccero, D. va Pancaro, C. (2020) 'Do non-performing loans matter for bank lending and the business cycle in euro area countries?', *ECB Working Paper Series*, No. 2411. Frankfurt am Main: European Central Bank.
11. Tölö, E. va Virén, M. (2021) 'How much do non-performing loans hinder loan growth in Europe?', *European Economic Review*, 136, article 103773. DOI: 10.1016/j.eurocorev.2021.103773.
12. Pierri, N. va Timmer, Y. (2022) 'The importance of technology in banking during a crisis', *Journal of Monetary Economics*, 128, pp. 88–104. DOI: 10.1016/j.jmoneco.2022.04.001.
13. <https://cbu.uz/>
14. <https://agrobank.uz/>